

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI Phd.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**JUMANIYAZOV SHIXNAZAR RAHIMBERGANOVICH**

**TASVIRIY SAN'AT VOSITASIDA TALABALARNING  
MILLIY O'ZLIGINI RIVOJLANTIRISHNING  
NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on pedagogical sciences**

**Jumaniyazov Shixnazar Rahimberganovich**

Tasviriy san’at vositasida talabalarning milliy o‘zligini rivojlantirishning  
nazariy-pedagogik asoslari .....3

**Джуманиязов Шихназар Рахимберганович**

Теоретико-педагогические основы развития национальной идентичности  
студентов посредством изобразительного искусства.....29

**Dzhumaniyazov Shikhnazar Rakhimberganovich**

Theoretical and pedagogical foundations of developing students’ national  
identity through visual arts .....51

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**

**Список опубликованных работ**

**List of published works.....55**

**OLIY TA'LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA  
MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI Phd.03/30.09.2023.Ped.173.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**JUMANIYAZOV SHIXNAZAR RAHIMBERGANOVICH**

**TASVIRIY SAN'AT VOSITASIDA TALABALARNING  
MILLIY O'ZLIGINI RIVOJLANTIRISHNING  
NAZARIY-PEDAGOGIK ASOSLARI**

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'lilotlar tarixi**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lum, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Ped6070-raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Samarcand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)) va «ZiyoNET» Axborot ta'lum portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xajiyeva Maksuda Sultanovna**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Ibraymov Askar Esbosinovich**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent

**Nurtaev Urinboy Nishanboevich**  
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Navoiy davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Oliy ta'lum tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Phd.03/30.09.2023.Ped.173.01-raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “10” 01 kuni soat 14:00dagi majlisida bo'lib o'tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy) Tel.: (+99871) 202-01-20; faks: (+99871) 202-01-21; e-mail: [info@bimm.uz](mailto:info@bimm.uz)).

Dissertatsiya bilan Oliy ta'lum tizimi kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (12-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi, 3-uy. Tel.: (+99871) 202-01-20; e-mail: [info@bimm.uz](mailto:info@bimm.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil “16” 12 kuni tarqatildi.  
(2024-yil “16” 12 dagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi).



**U.Sh.Begimkulov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
pedagogika fanlari doktori, professor

**A.S.Djurayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash kotibi, pedagogika fanlari  
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ya.O'Ismadiyarov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar rais,  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda Internet-ijtimoiylashuv sharoitida talaba-yoshlar o‘rtasida kiberbulling, agressivlikning oldini olish, toqatsizlik va madaniy egoizmni bartaraf etishning profilaktik dasturlarini ishlab chiqish va amaliyatga joriy etishga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. YUNESKO tomonidan qabul qilingan qator rezolyutsiyalarda madaniy turfa xillikni saqlab qolish, milliy o‘zlikni anglash, insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma’naviy merosni har tomonlama asrab-avaylash, turli millat va etnoslarning milliy identikligini hurmat qilish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya sharoitida talaba-yoshlarda umummadaniy kompetentligini rivojlantirish, milliy-tarixiy ongni shakllantirish, real hayotiy vaziyatlarda axloqiy bilimlarga tayangan holda harakat qilish malakasini tarkib toptirish muhim dolzarblik kasb etadi.

Jahonda tasviriy san’at vositasida talaba-yoshlarning badiiy-estetik kompetentligini rivojlantirish, madaniy-insonparvarlik yondashuvi asosida etnik tolerantlikni shakllantirish, multidissiplinar yondashuv asosida ta’lim oluvchilarda kross-madaniyatni tarkib toptirish, milliy xarakter va qiyofani namoyon qilish motivatsiyasini hosil va interiorizatsiyasini ta’minalashga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, shaxsning o‘z-o‘zini anglash bosqichlarini aniqlashtirishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish, tasviriy san’atning kompensatorlik rolini kuchaytirish, milliy madaniyatga doir qadriyatlar asosida talabalarda milliy g‘urur va iftixorni tarbiyalashning pedagogik tizimini takomillashtirish alohida dolzarblik kasb etadi. Shuningdek, globallashuv sharoitida etnomadaniy ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning artpedagogik texnologiyalarini takomillashtirish, talabalarda milliy-madaniy an’analarga aksiologik munosabatni tarkib toptirish zaruriyatini taqozo etadi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-madaniy sohadagi islohotlar tufayli milliy ta’lim tizimi uchun yuqori malakali mutaxassislarni, yuksak intellektual, ma’naviy-axloqiy salohiyatga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Yoshlarning iste’dod va qobiliyati, ezgu intilishlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy faolligini oshirish, hayotga munosib o‘rin egallashlari uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berish bundan ham buyon bosh maqsadimiz bo‘lib qolaveradi”<sup>1</sup>. Bu esa, talabalarning milliy o‘zligini anglash jarayonlari mohiyati, mazmuni, asosiy tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro aloqadorligini asoslash, tasviriy san’atning talabalarning milliy o‘zligini anglashini rivojlantirishga doir etnopedagogik imkoniyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish modeli va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: О‘zbekiston, 2021. – Б. 262-263.

rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risida, 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2004-yil 10-avgustdagi 425-son “O‘zbekiston tasviriy san’at galeriyasining faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 21-apreldagi PQ-4688-son “Tasviriy va amaliy san’at sohasi samaradorligini yanada oshirishga doir chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Respublikamiz olimlaridan milliy o‘zlikni anglashning ma’naviy-axloqiy, ekologik, valeologik asoslari, tarixiy tafakkur bilan aloqadorligi, kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining shaxsnинг o‘z-o‘zini anglash bilan aloqadorligi, milliy-badiiy qadriyatlarning talabalarda umummadaniy ko‘nikmalarni shakllantirish, ta’limni axborotlashtirish bilan bog‘liq jihatlari X.Abdikarimov, N.Azizzodjayeva, U.Begimqulov, R.Djurayev, X.Dusyarov, Sh.Majitova, Sh.Mardonov, N.Muslimov, B.Raximov, M.Urazova, Sh.Urakov, B.Xodjayev, N.Egamberdiyeva, F.Yuzlikayev kabilar tomonidan tadqiq etilgan. Bo‘lajak tasviriy san’at o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash masalalari S.Abdirasilov, S.Azimov, B.Boymetov, S.Bulatov, A.Sulaymonov, N.Talipov, R.Xayrov, R.Hasanov kabilarning tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan N.Volkov, I.Zimnyaya, T.Ilina, L.Klikova, N.Kornilova, P.Koveshnikov, S.Lavrenova, I.Mixaylov, N.Rostovsev, B.Yusovlarning tadqiqotlarida rang tasvirda kompozitsiya, kompetensiyaviy yondashuvning ta’lim-tarbiya muammolariga yechim topishdagi o‘rni va roli, san’atshunoslikning dolzarb muammolari, talabalarda badiiy-estetik, badiiy-loyihaviy kompetensiyalarni rivojlantirish, kasbiy tayyorgarlik jarayonida shaxsiy-ijodiy salohiyatni shakllantirish masalalari yoritib berilgan.

Xorijlik olimlardan P.Adler, M.Bennett, C.Grant, W.Gudykunst, W.Deming, Y.Kim, D.Lebrun, T.Mathai, R.Norton, P.Sihvolalar madaniy o‘ziga xosliklar, madaniyatlararo kommunikatsiya, madaniy kommunikativ kompetensiyalar, tasviriy san’atning milliy identivlikni tarkib toptirishdagi o‘rni kabilar yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Biroq muammoga doir adabiyotlarni tahlil qilish, ta’lim amaliyotini o‘rganish talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish bilan milliy-madaniy merosning imkoniyatlaridan samarali foydalanish, mazkur muammoga yechim topishning nazariy va amaliy asoslari o‘rtasida qarama-qarshilikning mavjudligini ko‘rsatdi.

Ana shu sababli tasviriy san'at vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish bo'yicha maxsus ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lif muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining Pya-2020022811. "O'zbekiston hududlaridagi tarixiy-madaniy an'analar va ularining zamonaviy ko'rinishlarini targ'ib etuvchi platforma yaratish" (2020-2022 yy.) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tasviriy san'at vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

talabalarning milliy o'zligini anglash jarayonlari mohiyati, mazmuni, asosiy tarkibiy qismlari va ularning o'zaro aloqadorligini asoslash;

artpedagogika vositasida talabalarni tasviriy san'at asarlarini badiiy-estetik tahlil qilishga o'rgatish mazmunini yoritib berish;

tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish modelini ishlab chiqish;

talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish modelini amaliyatga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlarida O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Shahrisabz davlat pedagogika instituti, Chirchiq davlat pedagogika universitetining tasviriy san'at va muhandislik grafikasi ta'lif yo'naliishing 437 nafar talabasi ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmetini** tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish mazmuni, modeli va shart-sharoitlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotda nazariy (tarixshunoslik, qiyosiy-chog'ishtirma tahlil, modellashtirish), empirik (suhbat, anketa, test, talabalarning faoliyat natijalarini tahlil qilish), pedagogik eksperiment va matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

talabalarning milliy o'zligini anglash jarayonlari bir-biri bilan aloqador va o'zaro faol ta'sir ko'rsatuvchi kognitiv, emotsiyal va xulq-atvor komponentlarning ko'p o'lchamli shaxsning etnik, madaniy identikligini tarkib toptirishga yo'naltirilgan maqsadli, tizimli faoliyat bilan integrativligini bevosita hisobga olishga qaratilgan etnomohiyat interiorizatsiyasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirilgan;

artpedagogika vositasida talabalarni tasviriy san'at asarlarini badiiy-estetik tahlil qilishga o'rgatishning milliy identiklikni rivojlantirish, milliy an'ana va qadriyatlarga "oshno etish", vitagen (hayotiy) tajribani badiiy ifodaviylik bilan boyitish imkoniyatlari san'atning vizualizatsion tavsifi va axborotning kommunikativ vazifani amalga oshirish mexanizmining identivligiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli bloki bilimlarni o'zlashtirish, emotsional qayg'urish, etnosxema va istalgan xulq-atvor modellarini loyihalash bosqichlariga muvofiq ravishda aksilogik, fanlararo, partisipativ, badiiy turfa xillik yondashuvlari bo'yicha o'quv materillarini taqdim etish, mustaqil ish, tezkor qayta aloqa, joriy natijalarini tahlil qilish algoritmini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish modelini amaliyatga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlari ta'lim mazmunini milliylikka yo'naltirilgan materiallar bilan boyitish, tasviriy san'at asarlari o'rganish jarayonida ta'lim oluvchilarining refleksiv amaliyotini tashkil etish, ta'lim oluvchilarda etnik mohiyatning mavjudligi kabi pedagogik shart-sharoitlari "Onlayn muzey" elektron galereyasini ishlab chiqish asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

"Rangtasvir" nomli darslik chop etilgan;

"Onlayn muzey" elektron galereyasi yaratilgan;

talabalarda milliy o'zlikni anglashning rivojlanganligini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan yondashuv va usullar ilmiy-metodik jihatdan asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar, tajriba-sinov ishlari samaradorligi darjasи matematik-statistik metodlar vositasida aniqlanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyatga joriy etilganligi hamda vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tasviriy san'at orqali milliy o'zlikni anglash fenomenining kontent-tahvilining amalga oshirilganligi, milliy o'zlikni anglashning mazmun-mohiyati, mazmuni, tarkibiy asoslarining yoritib berilganligi, talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish psixologik-pedagogik xususiyatlari, omillari va mezonlarining aniqlashtirilganligi, texnokratik jamiyatda talabalarining madaniy o'z o'rmini belgilay olishi bilan bog'liq muammolar, talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga doir metodologik yondashuvlar va tamoyillarning asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati artpedagogika vositasida talabalarda milliy o'zlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini ochib berilganligi, talabalarda tasviriy san'at asarlari badiiy-estetik tahlil qilish malakalarini rivojlantirish yo'llarining aniqlashtirilganligi, tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish modeli va pedagogik shart-sharoitlarining takomillashtirilganligi, "Onlayn muzey" elektron galereyasi va tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga doir ilmiy-metodik tavsiyalarning ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Talaba-yoshlar milliy o‘zligini shakllantirishda tasviriy san’atdan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari asosida:

talabalarning milliy o‘zligini anglash jarayonlarini bir-biri bilan aloqador va o‘zaro faol ta’sir ko‘rsatuvchi kognitiv, emotsiyal va xulq-atvor komponentlarning ko‘p o‘lchamli shaxsning etnik, madaniy identikligini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan maqsadli, tizimli faoliyat bilan integrativligini bevosita hisobga olishga qaratilgan etnomohiyat interiorizatsiyasiga ustuvorlik berish orqali aniqlashtirishga doir takliflardan 5150800 – Rangtasvir (mahobatli) ta’lim yo‘nalishi uchun “Rangtasvir” nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021 yil 18 avgustdagи 356-son buyrug‘i, 356-110 raqamli guvohnoma). Natijada, talabalarda milliy o‘zlikni anglashning kognitiv komponentini rivojlantirishga xizmat qilgan;

artpedagogika vositasida talabalarni tasviriy san’at asarlarini badiiy-estetik tahlil qilishga o‘rgatishning milliy identiklikni rivojlantirish, milliy an’ana va qadriyatlarga “oshno etish”, vitagen tajribani badiiy ifodaviylik bilan boyitish imkoniyatlarini san’atning vizualizatsion tavsifi va axborotning kommunikativ vazifani amalga oshirish mexanizmining identikligiga ustuvorlik berish asosida, tasviriy san’at asarları vositasida talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish modelining tashkiliy-jarayonli blokini bilimlarni o‘zlashtirish, emotsiyal qayg‘urish, etnosxema va istalgan xulq-atvor modellarini loyihalash bosqichlariga muvofiq ravishda aksilogik, fanlararo, partisipativ, badiiy turfa xillik yondashuvlari bo‘yicha o‘quv materillarini taqdim etish, mustaqil ish, tezkor qayta aloqa, joriy natijalarni tahlil qilish algoritmini ishlab chiqish orqali takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan 5150800 – Rangtasvir (mahobatli) ta’lim yo‘nalishi uchun “Rangtasvir” nomli darslikni ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagи 356-son buyrug‘i, 356-110-raqamli guvohnoma). Natijada, talabalarda tasviriy san’at asarlarini badiiy-estetik tahlil qilish va etnopedagogik imkoniyatlaridan foydalanish kompetentligini takomillashtirishga xizmat qilgan;

talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish modelini amaliyotga joriy etishning pedagogik shart-sharoitlarini ta’lim mazmunini milliylikka yo‘naltirilgan materiallar bilan boyitish, tasviriy san’at asarlarini o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilarining refleksiv amaliyotini tashkil etish, ta’lim oluvchilarda etnik mohiyatning mavjudligi kabi pedagogik shart-sharoitlari “Onlayn muzey” elektron galereyasini ishlab chiqish asosida takomillashtirishga doir amaliy taklif va tavsiyalardan Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida bajarilgan IL-422105582 – “O‘zbekiston badiiy ta’lim tizimida “Onlayn muzey” elektron galereyasini yaratish” (2021-2022 yy.) amaliy loyihasi kalendar rejasining 7-bandiga (Tanlab olingan ijodiy ishlardan elektron katalog yaratish) asosan onlayn galereya sahifasiga joylashtirilgan katalogini yaratishda foydalanilgan (Milliy rassomlik va dizayn institutining 2024-yil 17-oktyabrdagi 04-00/743-son ma’lumotnomasi). Natijada, raqamli texnologiyalar vositasida talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 20 ta ilmiy ish, shu jumladan 1 ta darslik, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovadan iborat bo‘lib, asosiy matn 120 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiyaning dolzarbliji va zarurati asoslangan, mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatib berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natjalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natjalarning amaliyotga joriy qilinishi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, unda tasviriy san’at orqali milliy o‘zlikni anglash fenomenining kontent-tahlili, milliy o‘zlikni anglashning mazmun-mohiyati, mazmuni, tarkibiy asoslari hamda talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish psixologik-pedagogik xususiyatlari, mezonlari yoritib berilgan.

Til va milliy ong milliy o‘zlikni anglatuvchi muhim unsurlardir. Milliy ongning o‘zi millat hayotining ifodasidir. Milliy ong bor jamiyatda vatanparvarlik, milliy davlatchilik an’analari saqlanib qoladi va millat kelajagi yo‘lida avloddan-avlodga o‘tib boradi. Xalqimiz barcha davrlarda ham voris sifatida yosh avlodning ta’lim va tarbiyasi, yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga boshlash masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Fan va adabiyot namoyondalari ma’rifat va ilm, san’at va g‘oyalarni tushuntirishga tinmay harakat qiladilar. Ular muvaffaqiyatga intilib, keljak avlodlarga axloqiy-ma’naviy meros, go‘zallik qoldirdi. Axloqiy va ma’naviy tarbiya – bu insonning ma’naviy dunyosiga ta’sir qilishdir. Insonda nafaqat go‘zallik tushunchasini, balki mehr-oqibat, halollik, rostgo‘ylik, insof, saxovat va shu kabi fazilatlarni ham yaratadi.

Milliy o‘zlikni anglash ijtimoiy ongning zaruriy va maxsus jihatni bo‘lib, insonning turmush tarzida aks etadi. U insonning shaxs sifatidagi mohiyati, boshqa xalqlar bilan o‘zaro harakat tizimidagi holati, insoniyat tarixidagi o‘rni va rolini ifoda etadi. Milliy o‘zlikni rivojlantirish shaxsnинг ma’naviy madaniyatini tarkib toptirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy psixologiyaning namoyon bo‘lishi sifatida milliy xarakterga taalluqli eng maqbul sifatlarni tarbiyalashga qaratilgan xalq pedagogikasi, shu jumladan, tasviriy san’at asarlari muhim o‘rin tutadi. Xalq pedagogikasi “xalqni bilish, tushunish uchun” etniklikni saqlashda alohida rol o‘ynaydi. Shuningdek, mazkur

bobda milliy o‘zlikni anglashning mohiyati va uning talaba shaxsi tuzilmasidagi o‘rnini aniqlash maqsadida “o‘z-o‘zini anglash”, “Milliy ong” va “milliy o‘zlikni anglash” kabi atamalarni o‘rganishga doir zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan.

O‘z-o‘zini anglashni shakllantirish talaba shaxsini rivojlantirishning muhim ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. U talabaning o‘z individualligini anglashini ifoda etib, subyektiv xarakter kasb etadi va olamning obyektiv manzarasini aks ettiradi. O‘z-o‘zini anglash obyekti sifatida faoliyatning bilish subyekti, ya’ni shaxsnинг o‘zi xizmat qiladi. O‘z-o‘zini anglashning dinamik tuzilmasini tahlil qilishda ikkita – “Ayniy men” va “Shaxsiy men” tushunchalari qo‘llaniladi. “Ayniy men” ayni paytda o‘z-o‘zini anglashning aniq shaklini bildiradi. “Shaxsiy men” – bu o‘z-o‘ziga munosabatning barqaror tuzilmasi bo‘lib, “Ayniy men”ning yadro sintezi. O‘z-o‘zini anglashning har bir holatida o‘z-o‘zini bilish va o‘z-o‘zi haqida qayg‘urish elementlari ifodalanadi.

O‘zlikni anglash tuzilmasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatish mumkin: 1) o‘zining “Men”i bilan bog‘liqlikda yaqin va uzoq mo‘ljalli maqsadlari, motivlarini anglash (“Men mavjud subyekt sifatida”); o‘zining real va istak ko‘rinishidagi sifatlarini anglash (“Real men” va “Ideal men”); o‘zi haqidagi kognitiv tasavvurlar (“Men kuzatiladigan obyekt sifatida”); o‘zi haqidagi emotsiyonal-hissiy tasavvurlar.

Umuman olganda, o‘z-o‘zini anglash – shaxslilik mohiyati bilan bog‘liqlikda insonni tushunish, jamiyat va olamning yaxlit manzarasidagi o‘zining o‘rnini anglashi, yaxlitlikda inson ongingin uchta plastasini ajratib ko‘rsatish mumkin: o‘z-o‘ziga munosabat; boshqalarga munosabat; boshqa kishilarning o‘ziga munosabati (atributiv proyeksiya).


Milliy o‘zlikni anglash – individual va ijtimoiy ong darajasi bo‘lib, ijtimoiy yaxlitlikdagi bir butunlik va har bir individning alohidaligi hisobga olinadigan kishilar jamoasini tarkib toptirish imkonini beradigan xalq tushunchasi, tasavvurlar va an’analalar yig‘indisi. Boshqacha aytganda, milliy o‘zlikni anglash – ularning kelib chiqishi birligiga asoslangan xalq va uning vakillarining o‘ziga xosligini aks ettirish shakllaridan biri.

Shaxsnинг motivatsion, emotsiyonal va intellektual rivojlanish sohasining asosi sifatida milliy o‘zlikni anglash jarayoni o‘zaro bir-biri bilan aloqador va o‘zaro faol ta’sir ko‘rsatuvchi komponentlarni o‘zida aks ettiradi. Tadqiqotda doirasida milliy o‘zlikni rivojlantirishning asosiy – kognitiv, emotsiyonal va xulq-atvor komponentlari aniqlashtirildi (1-rasmga qarang).

Milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning kognitiv komponenti o‘zida etnologik, etnopedagogik, tarixiy, geosiyosiy bilimlar, ularning to‘liqligi, mustahkamligi, anganganligi, tinchliksevarlik kabilarni aks ettiradi. Ijtimoiy-etnik umumiylikni anglash natijasida xalqaro hamjamiyatdagi mazkur xalqning o‘rnini tushunishga erishiladi. Individual ong darajasida bu muayyan xalqqa xos o‘ziga xosliklar vorisi sifatida o‘zi haqidagi tasavvurlar tizimini namoyon qiladi.

Emotsional komponent milliy o‘zlikni anglash tuzilmasida muhim o‘rni tutadi hamda Vataniga, xalqiga muhabbat, mamlakati taqdiri uchun mas’uliyatda namoyon bo‘ladi. Shaxs rivojining emotsiyonal sohasi orqali insonda milliy o‘ziga xoslik va xarakter shakllanadi. Emotsional komponent milliy hayot va hodisalarga kishilarga barqaror emotsiyonal munosabatlarni avloddan-avlodga o‘tkazish orqali tarixan

shakllanadigan milliy tuyg‘uning namoyon bo‘lishida ifodalanadi. Individual ong darajasida esa, bu ma’lum bir etnosga bog‘liqlik va o‘zining milliy mansubligini pozitiv qabul qilishda namoyon bo‘ladi.



### 1-rasm. Talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish tuzilmasi

Milliy o'zlikni anglashning xulq-atvor (yo‘naltiruvchi-irodaviy) komponenti o‘z xalqining madaniyatini saqlash, ko‘paytirish uchun uni targ‘ib-tashviq qilishga yo‘naltirilgan faoliyatda o‘zining burchini anglash orqali namoyon bo‘ladi. Individual ong darajasida bu xulq-atvorga doir etnosxemalarda namoyon bo‘ladi. Xulq-atvor komponenti milliy madaniyatni, shu jumladan, tasviriy san’at asarlarini keng targ‘ib qilish, folklor an’analarini saqlashga doir faollik orqali amalga oshadi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib aytganda milliy o'zlikni anglash deganda, o‘zida kognitiv, emotsional, xulq-atvor komponentlar birligi va o‘zaro shartlanganligini aks ettiruvchi murakkab, ko‘p o‘lchamli shaxsning etnik, madaniy identikligini tarkib toptirishga yo‘naltirilgan maqsadli, tizimli jarayon tushuniladi.

Shuningdek, dissertatsianing birinchi bobida talabalik yillarida milliy o'zlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik o‘ziga xosliklari va madaniy o‘z o‘rnini belgilay olish masalasiga ham e’tibor qaratilgan.

Zamonaviy dunyoda talabalarning milliy o‘zligini anglashi muammosi texnokratik kayfiyat, ustaganovka va ba’zan hayot tamoyillarining murakkab va ziddiyatli jihatlar tarzida yoshlarning ommaviy ongida aks etadigan tijoratlashtirish, tadbirdorlik jarayonlari shiddat bilan tus olayotgan davrda alohida ahamiyat kasb etadi. Bu esa, qator muammolarni yuzaga keltiradi: shaxsning o‘zini qadriyat sifatida, uning ma’naviy-axloqiy rivojlanishini xavf ostiga qo‘yadi, inson o‘zining barqaror ichki olamini unutishiga olib keladi. Bunday sharoitda milliy o'zlikni anglash talabaga o‘zining nuqtai nazarlarini anglash va ularni saqlab qolish, milliy qadriyatlarni ichki qabul qilish (interiorizatsiya), o‘z oldiga o‘quv, ijodiy vazifalarni qo‘yish, ijtimoiy-madaniy jihatdan oliy ta’limdagi o‘quv fanlari, shu jumladan, tasviriy san’atni o‘rganishdan ko‘zlangan mohiyatni tushunishga yordam beradi.

Jamiyatdagi transformatsiya jarayonlari zamonaviy talabalikning ijtimoiy qiyofasini o‘zgartirdi. Yangi turdagи talabaning o‘ziga xosligi sifatida individuallik,

moddiylikning ma’naviyatdagi ustunligi, faqat shaxsiy kuchi va imkoniyatlarini hisobga olish, shaxsiy manfaatning ijtimoiylikdan ustunligi kabi sifatlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Yana bir jihatga ahamiyat qaratish lozimki, zamonaviy talabalik yillari yoshlarning qadriyatli yo‘nalishlari transformatsiyasi va uning ijtimoiy-siyosiy faolligining sustligi kabi qator sabablar bilan bog‘liq an’anaviy ziylolarga xos alohida jihatlarning ahamiyatining pasayib borayotganligini ko‘rsatadi. Umuman olganda, talabalik bir tomondan jamiyatning yuksak qatlamini aks ettiradi, boshqa tomondan esa, zamonaviy talabalarda identiklik inqirozi, milliy ma’naviy merosga qiziqishni ommaviy madaniyatga iste’molchilik munosabati bilan almashtirish, muammolarga yechim topishda pragmatik nuqtai nazardan yondashish kabi salbiy tendensiyalar ko‘zga tashlanmoqda.

Zamonaviy dunyoda yangi raqamli texnologiyalarning rivojlanishi juda tez sur’atlarda sodir bo‘lmoqda. Bu bilan bog‘liqlikda oliy ta’lim tizimida ham keng tus olayotgan texnik fikrlash talabalarning milliy identikligiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Texnokratik fikrlash uchun eng muhimi inson va uning qadriyatlar tizimi emas, aksincha pragmatik maqsadlarga erishishdir. Bunda “homo agens (agent odam)” ideal sifatida namoyon bo‘ladi.

Oqibatda talabada pragmatizmni kuchaytirib, unda insoniylik, shu jumladan, olamga axloqiy munosabatning yo‘qolib borishiga olib keladi. Shu bilan birga, yagona haqiqiy maqsad sifatida oliy ta’lim tashkilotida ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalarni yaxlitlikda amalga oshirish orqali homo moralis – ma’naviy-axloqli insonni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, mazkur bobda milliy o‘zlikni anglashning to‘liq namoyon bo‘lishidagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun uning rivojlanganligi mezonlari va ko‘rsatkichlari belgilab berilgan. Milliy o‘zlikni anglashning mohiyati va tarkibiy asoslarini tahlil qilish asosida uning uchta mezoni aniqlashtirildi: etnonim, milliy stereotip va milliy o‘z-o‘zini identifikatsiyalashga xos belgilar. Etnonim o‘zlikni anglashni o‘zining kimligini, etnik kelib chiqishini bilish va bosh asos sifatida namoyon bo‘ladi hamda o‘zining milliy o‘zaklari, etnosga xos madaniyat va an’analarni qabul qilishi asosida ongli milliy identifikatsiyani ifoda etadi. Milliy stereotiplar etnik identiklik elementi sifatida turli millat vakillariga xos axloqiy, aqliy, jismoniy sifatlar haqidagi barqaror tasavvurlardir. Etnik identiklikni milliy o‘zlik identifikatsiyasi, ya’ni ma’lum bir millatga xoslikni anglash belgilarisiz tavsiflash mumkin emas.

Milliy o‘zlik identifikatsiyasi belgilari – bu ma’lum bir millatga xos til, tarix, madaniy va tarixiy o‘zakni o‘zida ifoda etishdir. Uchala mezon yig‘indisi orqali etnik identiklik individual milliy o‘zlikni anglash sifatida yuzaga chiqadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Tasviriy san’at vositasida talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirishning pedagogik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, unda artpedagogika vositasida talabalarni tasviriy san’at asarlarini badiiy-estetik tahlil qilish malakalarini rivojlantirish, talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish modeli va “Onlayn muzey” elektron galereyasi asosida talabalarda milliy o‘zlikni rivojlantirish masalalari yoritib berilgan.

Artpedagogika keng ma’noda subyekt-subyekt munosabatlari asosida o‘zaro birgalikdagi harakatni amalga oshirish orqali o‘z-o‘zini namoyon etish va o‘z o‘rnini belgilashga intiluvchi shaxs sifatida talabani ko‘zda tutadi. Bunday o‘zaro

munosabat pedagog shaxsiga qo‘yiladigan ma’lum bir talablarni aniqlashtirishni nazarda tutadi. Artpedagogika – san’at asarlari vositasida talabalarni o‘qitish, rivojlantirish va tarbiyalashga qaratilgan pedagogikaning alohida sohasi.

Artpedagogikaning asosiy vazifalariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) talabaning shaxs sifatida o‘z-o‘zini anglashini shakllantirish, o‘z-o‘zini qabul qilish va shaxsiy qadriyatlarini tushunishiga erishish;
- 2) o‘zining uni o‘rab turga olam bilan o‘zaro aloqadorligi va ijtimoiy-madaniy muhitdagi o‘z o‘rnini anglash;
- 3) shaxsning ijodiy jihatdan o‘z-o‘zini namoyon etishiga erishish.

Artpedagogikaning o‘ziga xosliklarini quyidagi atamalar orqali aniqlashtirish mumkin:

- 1) artpedagogik faoliyat – bu kasbiy-pedagogik faoliyat maqsadini san’at vositasida amalga oshirish uchun tartibga solingan pedagogik xatti-harakatlar yig‘indisi;
- 2) artpedagogik o‘zaro ta’sir – professor-o‘qituvchi – ta’lim mazmuni – tasviriy san’at – talaba tizimida yuzaga keladigan aloqalar tizimi;
- 3) artpedagogik jarayon – qo‘yilgan maqsadga erishish (shu jumladan, milliy o‘zlikni anglash) uchun tasviriy san’at asarlaridan foydalanish;
- 4) artpedagogik fasilitatsiya – san’at vositasida shaxsnii tarbiyalash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan qulaylashtirilgan harakatlar tizimi;
- 5) artpedagogik tamoyillar – san’at vositasida pedagogik jarayon ishtirokchilarining o‘zaro munosabatlarini tartibga solishga yo‘naltirilgan umumiy qoidalar;
- 6) artpedagogik mashg‘ulot – o‘zaro birgalikdagi samarali faoliyat asosida badiiy ta’lim-tarbiya jarayonlarini amalga oshirishning maxsus shakli;
- 7) artpedagogik vaziyat – san’at asarlarida ifoda etilgan muammoni badiiy-estetik tahlil qilishga qaratilgan holatlar yig‘indisi.

Ta’lim jarayonida artpedagogikaning imkoniyatlari yuqori bo‘lib, ular san’at va pedagogikaning integrativ determinantlaridan kelib chiqadi va shaxsning kreativ qobiliyatlarini faollashtirish, intellektual va emotsiyonal rivojlanish sohalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Artpedagogik, kreativ jarayon talabada milliy o‘zlikni rivojlantirishga faol rag‘bat uyg‘otadi. Tasviriy san’at asarlari tahlili jarayonida o‘qituvchi tasodifiylik tamoyilidan foydalanib, o‘ziga xos yechimlarni bermaydi, balki talabaning tasavvur va xayolot olamini kengaytiradi, uni faol tinglash va o‘z his-tuyg‘ulariga ishonishga o‘rgatadi. Shu o‘rinda reflektivlik tamoyili ham muhim o‘rin tutib, insonning tasviriy san’at asarida aks etgan voqelikni ijodiy tushunish, undagi ma’no va qadriyatlar tizimini anglash, g‘ayrioddiy vazifalarni belgilash va ularni hal qilish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.

Tasviriy san’at asarlari talabalarni insoniyatning saralangan, sayqal berilgan, umumlashtirilgan va sermazmun tajribalari bilan qurollantirish bilan birga, milliy identiklikni rivojlantirish, milliy an’ana va qadriyatlarga “oshno etish”, vitagen (hayotiy) tajribani badiiy ifodaviylik bilan boyitish imkoniyatini taqdim etadi. Tasviriy san’atning vizualizatsion tavsifi insonga o‘z nuqtai nazarlari va qadriyatlar tizimini faol tasavvur qilish imkoniyatini beradi. Tasviriy san’atda aks etgan axborot kommunikativ vazifani amalga oshirish mexanizmi sifatida namoyon bo‘lib, uning

tarkibiga axborot manbai (asar), axborot kanali (tasviriy va ifoda vositalari) va resipient (idrok predmeti) kiradi.

San'at asarini badiiy-estetik tahlil qilish uchun maxsus atamalardan foydalaniladi, u estetikaning rivojlanishi davomida shakllangan quyidagi muhim tushunchalarni o'z ichiga oladi: badiiy asarning mazmuni va shakli; ichki va tashqi shakli; mavzu; obrazli-estetik g'oya; kompozitsiya; ritm; tizim; badiiy yaxlitlik; tuzilish; g'oyaviy-estetik baholash; san'at tili. Estetik tahlilni san'atdagagi tasvir va ifoda; badiiy makon va zamon kabi tushunchalarni jalg qilmasdan amalgalashirishning imkonini yo'q.

Ye.V.Volkova badiiy mazmunni san'atga xos bo'lgan, tizimli tartibga ega g'oyaviy-emotsional, badiiy-obrazli ma'no va mazmun sohasi sifatida ta'riflaydi. "Xarakter", "syujet", "fabula" kabi mazmunga tegishli boshqa turdag'i atamalardan san'atning muayyan turlarini tavsiflash uchun foydalanish mumkin. "Mavzu" va "g'oya" mazmunli tahlil kategoriyalari va ularning o'zaro aloqalari estetik tahlil tarkibiy asosini boyitadi.

V.V.Vanslov san'at asari mazmunini "san'atning o'ziga xos jihatlarida voqelikning aks etishi, rassomning hayot voqealarini u yoki bu tarzda tushunishi va baholashini o'z ichiga olgan tasvir", deb hisoblaydi. Uning fikricha, san'at asarining mazmuni har doim nafaqat obyektdan "kelayotgan", balki subyekt tomonidan "taqdim etilayotgan" narsalarni ham o'z ichiga oladi; u nafaqat predmet bilan, balki uni tushunish usuli, rassomning baholashi, o'z dunyoqarashi, ichki dunyosini ifodalashi bilan aniqlanadi.

San'at asarining badiiy shakli yaratiladigan o'ziga xos moddiy vositalar odatda, san'at tili deb ataladi. Ijodiy ish va uning koloritini yaratadigan chiziq, rang, nursoyani rassomchilik san'ati tiliga bog'lash mumkin. Ijodiy ish har doim ma'lum bir tuzilishga ega bo'lgan tekislikda uch o'lchamli makonni tasvirlaydi, shuning uchun uning tili chiziqli va havo perspektivasining tasviriy-ifodali vositalarini hamda kompozitsiyaning turli usullarini o'z ichiga oladi.

Shunisi ayonki, agar badiiy til san'at asarining shaklini yaratish uchun asosiy "qurilish materiali" bo'lsa, rassomning barcha tasviriy-ifodali vositalardan erkin foydalana olishi muhim shartlar qatoriga kiradi.


Nazariy tahlillar asosida mazkur bobda tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning pedagogik modeli ishlab chiqildi. Modelni ishlab chiqish uchun tasviriy san'at asarlari madaniy fenomen sifatida o'zida ma'lum bir xalqning madaniyatini rivojlantirish natijasi va shartini aks ettiradi, degan g'oya asos qilib olindi.

Ana shu nuqtai nazardan ta'limning asosiy maqsadi ham xilma-xil madaniy mazmunni izlash maqsadida dialogga kirisha oladigan, faoliyat va fikrlashning turli shakllariga qobiliyatli madaniyatli insonni tarbiyalashdan iborat bo'lishi lozim.

Shu sababli dissertatsiyada tasviriy san'at asarlarining milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga doir vazifalarni hal etishdagi o'rni va roli alohida tavsiflangan. Aksiologik, fanlararo, partisipativ, badiiy turfa xillik yondashuvlarga ustuvorlik berish asosida ishlab chiqilgan model o'zida maqsadli, metodologik, mazmunli, tashkiliy-jarayonli, texnologik, natijaviy-baholovchi bloklarni hamda pedagogik shart-sharoitlar majmuini aks ettiradi (2-rasmga qarang).

**Ijtimoiy buyurtma:** san'at asarlarida milliy va umuminsoniy an'analarning yuksak darajada ifoda etilishiga erishish

**Maqsad:** tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish



## 2-rasm. Tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishning pedagogik modeli

Dissertatsiyada pedagogik modelning asosiy – maqsadli, metodologik, mazmunli, tashkiliy-jarayonli, texnologik, natijaviy-baholovchi bloklar va pedagogik shart-sharoitlari batafsil tavsiflangan.

Jumladan, asosiy maqsad sifatida tasviriy san'at asarlariga qadriyatli munosabatni shakllantirish orqali talabalarda ijtimoiy-madaniy faoliyatda amalga oshadigan milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish belgilab olingan.

Metodologik blokda talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishga doir yondashuvlar (aksiologik, fanlararo, partisipativ, badiiy turfa xillik) va tamoyillar (madaniy xilma-xillik, subyektivlik, empatiya, kommunikativ sheriklik va o'quv guruhidagi hamkorlik, refleksiv boshqarish) o'z ifodasini topgan.

Ayniqsa, fanlararo yondashuv mazkur tadqiqot uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki bugungi kunda pedagogika oliy ta'lim muassasalarida badiiy-estetik ta'lim bo'yicha alohida integrativ kurs mavjud emas. Mazkur kursning alohida jihatlari "Umumiy psixologiya", "Umumiy pedagogika", "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi", "Tasviriy san'at tarixi", "Qalamtasvir", "Rangtasvir" kabi fanlar mazmunida o'z aksini topgan. Boshqacha aytganda, mazkur fanlarning imkoniyatlaridan samarali foydalanish orqali tasviriy san'at vositasida talabalarning milliy o'zligini anglashiga erishish mumkin.

Shuningdek, tasviriy san'at asarlari vositasida talabalarda milliy o'zlikni anglashni rivojlantirishda aksiologik yondashuv muhim o'rin tutadi. Aksiologik yondashuv doirasida qadriyatli mazmunning asosiy elementlari sifatida bilim, ko'nikma, munosabatga doir qadriyatlar aks etadi. Bilimga doir qadriyatlarga milliy madaniyat tarixiga doir dalillar, tushunchalar, qonuniyatlar, g'oyalar kiradi.

Mazkur tadqiqotda o'zlashtirilgan bilimlar milliy o'zlikni anglashning kognitiv komponentini rivojlantirishni prognozlashga xizmat qiladi. Munosabatlar tizimining muhim elementlarga ona Vatanga, milliy madaniyatga, o'z va boshqa etnos vakillariga, etnik xususiyatlarni tashuvchisi sifatida o'z-o'ziga munosabat elementlari muhim o'rin tutadi. Munosabatga doir qadriyatlar tizimini shakllantirish milliy o'zlikni anglashning emotsiyal komponentini rivojlantirish bilan bog'liqdir.

Faoliyatning (bilish, qadriyatli yo'nalganlik, kommunikativ va boshq.) asosiy turlariga doir amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish milliy o'zlikni anglashning xulq-atvor komponentini rivojlantirishga yordam beradi.

Tasviriy san'at asarlari mazmuniga muvofiq milliy o'zlikni anglashni rivojlantirish uch bosqichda amalga oshadi: bilimlarni o'zlashtirish; emotsiyal, etnosxema va istalgan xulq-atvor modellarini loyihalash.

Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun tasviriy san'at asarlarini o'rganish jarayonida foydalilanigan barcha metod va usullarni milliy o'zlikni angash komponentlarini (kognitiv, emotsiyal, xulq-atvorga doir) rivojlantirish va o'quv mazmunining barcha elementlarini (bilim, munosabat, ko'nikma, malaka, amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya) o'zlashtirishni tashkil etish bilan bog'liqlikda uch guruhga ajratish mumkin:

1) milliy o'zlikni anglashning kognitiv komponentini rivojlantirish bilan bog'liq ko'rgazmali, reproduktiv, muammoli, evristik va tadqiqotchilik metodlari;

2) milliy o'zlikni anglashning emotsiyal komponentini rivojlantirishga doir metodlar: tasviriy san'at asarlarining san'atning boshqa turlariga ta'siri; tasviriy san'at asarlari va talabalarning hayotiy taassurotlari motivlari bo'yicha badiiy ijod; ijodiyl topshiriqlar; obyektni emotsiyal-obrazli tadqiq etish va boshq.;

3) milliy o'zlikni anglashning xulq-atvor komponentini rivojlantirish bilan bog'liq munozara, debat, tasviriy san'at asarlariga yozilgan sharhlar (memuarlar, kundaliklar, adabiy-tanqidiy maqolalar va ilmiy tadqiqotlar, rassomlarning hayoti va ijodi, badiiy-tarixiy adabiyotlar va boshq.).

Shuningdek, talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlantirish jarayonini rag‘batlantiradigan metodlar majmuidan tashqari ta’limning binar-ma’ruza, ma’ruza-munozara, vizual-ma’ruza, virtual sayohatga asoslangan ma’ruza, integrallashgan ma’ruza kabi o‘qitish shakllanitirshda foydalanish maqsadga muvofiq.

Nazariy materiallarni o‘rganish, kuzatish, pedagogik faoliyat natijalarini tahlil qilish asosida talabalarda milliy o‘zlikni rivojlantirishga samarali ta’sir etadigan quyidagi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi: ta’lim mazmunini milliylikka yo‘naltirilgan materiallar bilan boyitish; tasviriy san’at asarlarini o‘rganish jarayonida ta’lim oluvchilarning refleksiv amaliyotini tashkil etish; ta’lim oluvchilarda etnik mohiyatning mavjudligi; talabalarning tasviriy san’at asarlarini badiiy-estetik tahlil qilishga o‘rgatish.

Talabalarda milliy o‘zlikni anglashni rivojlanganligini baholash uchun kognitiv, emotsional va xulq-atvor mezonlariga muvofiq, yuqori, o‘rta va past darajalar asos qilib olindi.

Talabalarning tasviriy san’at asarlarini o‘rganish va badiiy-estetik tahlil qila olishlari uchun onlayn muzeylar katta ahamiyat kasb etadi. Ana shu nuqtai nazardan, “Onlayn muzey” elektron galereyasi katalogizatsiyasi yaratish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Onlayn muzeysiga tashrif buyurish jarayoni haqiqiy muzeysiga qatnash jarayoniga nisbatan qator afzalliklarga ega bo‘lgan virtual ekskursiyalar yordamida amalga oshiriladi.

